



ELEKTRON HUJJAT AYLANISHI TIZIMLARI VA RAQAMLI IMZO

Qirg'izaliyev Sarvar Maqsudali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti

Davlat Boshqaruvi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: sarvarqirgizaliyev8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17512589>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 3rd November 2025

KEYWORDS

Elektron hujjat, hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo (ERI), raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi, elektron hukumat, elektron imzo sertifikati, axborot tizimi, elektron xizmatlar, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), elektron tijorat, E-imzo, raqamli transformatsiya, davlat boshqaruvi, ma'lumot almashinuvi, shaffoflik, raqamli iqtisodiyot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Elektron hujjat aylanishi tizimlari va raqamli imzo" ning elektron hukumatni rivojlantirishdagi o'rni va roli, elektron hujjat aylanishi tizimlari va raqamli imzoning hozirgi davrdagi ahamiyati, hamda ushbu tizimning huquqiy asoslari va uning ishlash prinsipi, tizimning infratuzilmasi va foydalanuvchlariga yaratilgan imkoniyatlar, shuningdek, elektron hujjat va elektron raqamli imzodan foydalanish va uni qanday olish to'g'risida batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar va xorij tajribasini o'rganish orqali ushbu tizimning joriy muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish va ushbu tizimning samaradorligini oshirish uchun takliflar va xulosalar keltirilgan.

Kirish. Axborot texnologiyalari bilan birga axborot tizimlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi turli manbalardan ma'lumot olish tezligini sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Davlat muassasalari, tijorat korxonalari va jismoniy shaxslarning axborotni elektron shaklda yaratib saqlay olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda elektron hujjat aylanish tizimlarini joriy etish jadal suratlarda amalga oshirilmoqda va bu iqtisodiyot tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Hozirgi kunda deyarli har bir inson zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega. Ular orqali masofadan turib, davlat va jamiyat hayotiga oid eng muhim masalalarda onlayn ishtirok etishmoqda, shu bilan birga vaqt va xarajatlarini tejab qolishmoqda, bu esa o'z navbatida samaradorlikka xizmat qilmoqda. Shu o'rinda, Elektron hujjat aylanishi tizimi va elektron raqamli imzo ham insonlarga masofadan turib turli xil vazifalarni bajarishga qulayliklar yaratyapti.

Asosiy qism. Elektron hujjat aylanishi tizimi bu – nima?

Elektron hujjat aylanishi tizimi - bu hujjatlarni boshqarish va qayta ishlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadigan tashkilotlar o'rtasida elektron hujjatlar va ma'lumotlar almashinuvi tizimi. Bu ish oqimini yaxshilash, hujjatlarni qisqartirish va ma'lumot almashish xavfsizligi va ishonchliligini oshirishning zamonaviy va samarali usuli. Shuningdek, Elektron hujjatga O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi. "Elektron hujjat aylanishi

elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi." Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish (shu jumladan shartnomalar tuzish), hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin. Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir. Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi. Shuningdek, elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat:

elektron raqamli imzo.

elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi.

elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili.

Hujjat yaratilgan sana.

Qonunchilikda yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvi bilan elektron hujjatning boshqa rekvizitlari ham belgilanishi mumkin¹.

Elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Bugungi kunda, aksariyat kompaniyalar qog'ozli ishlardan elektronga o'tmoqda. Bu tashkilot vaqtini ham, pulni ham tejaydi. Elektroon shakldagi ma'lumotni ofisidan yoki boshqa joydan kuniga 24 soat almashish mumkin. Elektron imzo va Internetga ulangan kompyuterga ega bo'lish kifoya. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, elektron hujjat aylanishi davlat byudjeti sarfini iqtisod qilishga va vaqtni tejashga xizmat qiladi.

Daniya elektron hujjat aylanishi bo'yicha boy tajribaga ega davlat hisoblanadi. Bu mamlakatda elektron hujjat aylanishi natijasida yiliga 100 million yevro mablag' iqtisod qilinmoqda. Bugun Janubiy Koreya, Chili, Meksika, Braziliya kabi davlatlar ham elektron hujjat tizimiga o'tgan. Bugungi kunda mamlakatimizda hujjatlar elektron aylanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa tadbirkorlarga bir qator qulayliklar yaratilishida muhim omil bo'lmoqda. Jumladan, my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadi fuqarolar va tadbirkorlarga interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatishdir. Yagona portal orqali 120 dan ortiq davlat organlariga bevosita elektron tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratilgan. Elektron hujjat aylanishidan tadbirkorlik subyektlari bir qator hisobot va hujjatlarni topshirishda foydalanib kelmoqda. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'z shaxsiy kabineti orqali soliq to'lovlarini amalga oshirishi, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar va 27 turdagi hisobotlarni elektron tartibda taqdim etishi mumkin².

Odatda hujjatlarni an'anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o'ynaydi. Chunki pochta xizmatining asosiy vazifasi jo'natmalarni o'z manzillariga etkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo'limiga topshiriladi. Shundan so'ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo'natiladi va yetkaziladi. Elektron hujjatlarni almashish tizimi esa an'anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qilinadi. Bunda hujjat elektron ko'rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog'i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (E-hujjat) yoki elektron pochta xizmatidan foydalaniladi. Elektron hujjat almashish tizimlarida hujjatlarni uzatish juda tezkor amalga oshiradi.

Elektron hujjat aylanishi nafaqat hujjatlarni almashish, balki qog'oz tashuvchilardan foydalanmasdan ishni tashkil qilish imkonini beradi. Masalan, hujjatlarni qidirish, hisobotlarni tuzish, arxivlash va boshqalar. Bir kompaniya boshqa bir kompaniyaga elektron hujjat

¹ <https://lex.uz/docs/-165079>

² <https://uza.uz/oz/>

yuboradi. Qabul qiluvchi uni bir necha soniya ichida shaxsiy kompyuterida oladi. Bu vaqtda operator hujjat tasdiqlangan elektron imzoni va hujjat formati qonun talablariga muvofiqligini avtomatik tekshirishni amalga oshiradi. Statuslar yordamida jo'natuvchi hujjat qanday harakatlanayotganini ko'rishi mumkin.

Elektron hujjat aylanishining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, hujjatlar va axborotlar xavfsizligini ta'minlaydi. Ya'ni statistika bo'yicha qog'oz ko'rinishidagi har o'n beshinchi hujjat yo'qolishini inobatga oladigan bo'lsak, elektron tartibda hujjatlar aylanishida bu hol kuzatilmaydi.

Ikkinchidan, mablag'lar sarf xarajatlarini kamaytiradi. Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan hujjatlarni qog'oz ko'rinishida davlat tashkilotlari yoki boshqa muassasalarga olib borib berishi, pochta xarajatlari, hujjatlarni chop etish yoki undan nusxalar olish, arxivlar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar kamayishiga olib keladi.

Uchinchidan, ko'p vaqt sarflanishining oldini oladi. Tadbirkorlik subyekti tomonidan davlat organlari, tashkilotlari yoki boshqa muassasalarga borib qog'oz shaklida hujjatlarni topshirish, navbatda turish, rasmiylashtirish bilan bog'liq holatlarga ortiqcha vaqt sarflanmaydi. O'z o'rnida davlat xizmatchisi ham mazkur murojaat yoki hujjatlarni qidirib topishga vaqt ketkazmaydi.

To'rtinchidan, davlat organlari faoliyatida shaffoflik ta'minlanishi va hujjatlar aylanishini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Beshinchidan, hujjatlar bilan har qanday operatsiyalarni kechayu kunduz onlayn bajarish imkoniyati ya'ni hujjatlarni qidirish, yuklab olish, chop etish, tekshirish, rad etish, shuningdek ularning harakatini kuzatishni osonlashtiradi.

Elektron raqamli imzo (ERI) - bu elektron hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash imkonini beruvchi texnologiyadir. U qog'oz hujjatlardagi qo'l imzoga o'xshash, lekin elektron muhitda ishlatiladi. ERI kriptografiya tamoyillari asosida ishlaydi va o'z ichiga ochiq va yopiq kalitlarni oladi. Yopiq kalit imzo yaratish uchun, ochiq kalit esa uni tekshirish uchun ishlatiladi. Bu ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlaydi, shuningdek hujjatning muallifligi va butunligini tasdiqlaydi. Elektron raqamli imzo O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi 12.10.2022 yildagi O'RQ-793-son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi. Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo. Elektron raqamli imzo - xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining haqiqiylikni tekshirishda qo'llaniladigan va shaxs imzosini to'laligicha o'rnini bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan hujjatlarni va axborotlarni haqiqiylikni tekshirishda qo'llaniladi³.

ERI hujjat ma'lum bir shaxs yoki tashkilot tomonidan imzolanganini tasdiqlaydi va anonim yoki soxta mualliflik imkoniyatini istisno etadi. Imzo hujjat imzolanganidan keyin o'zgartirilmaganligini kafolatlaydi. Hujjatga imzo qo'yilgandan keyin qilingan har qanday o'zgartirish imzoni haqiqiy emas qiladi. ERI faqatgina hujjatni imzolash uchun noyob kalitga ega bo'lgan jo'natuvchi tomonidan yaratilishi mumkin bo'lganligi sababli, jo'natuvchining hujjat muallifligidan voz kechish holatini oldini oladi. Ko'plab mamlakatlarda elektron imzolar an'anaviy qo'l imzolari bilan bir xil huquqiy kuchga ega. ERI turli sohalarda, jumladan elektron hukumat, onlayn-banking, elektron tijorat va boshqa ko'plab sohalarda, qayerda elektron hujjatlarning xavfsizligi va haqiqiylikni ta'minlash zarur bo'lganda, keng qo'llaniladi.

³ <https://lex.uz/docs/-6234904>

elektron raqamli imzoning yopiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

elektron raqamli imzoning ochiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiq bo'lgan, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ochiq bo'lgan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

elektron raqamli imzo kalitining sertifikat — elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiqligini tasdiqlaydigan elektron hujjat.

elektron raqamli imzo kalitining egasi — o'ziga elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda, elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qog'oz hujjatga qo'lda shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi, agar:

elektron raqamli imzoning haqiqiyligi tasdiqlangan bo'lsa.

elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash paytida yoxud imzolash paytini belgilovchi dalillar mavjud bo'lganda elektron hujjatni imzolash paytida amalda bo'lsa.

Elektron raqamli imzodan elektron raqamli imzo kalitining sertifikatida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanilayotgan bo'lsa.

Elektron raqamli imzo (ERI) qanday olinadi?

Elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini jismoniy yoki yuridik shaxsning elektron raqamli imzoning kalitini berish yoki elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini ro'yxatga olish to'g'risidagi arizasiga asosan beriladi. Elektron raqamli imzoning kalitini berish yoki elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini ro'yxatga olish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak. Elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini ro'yxatga olish markazi tomonidan arizachining shaxsi tasdiqlanganidan keyin beriladi.

Ro'yxatga olish markazlari tomonidan elektron raqamli imzo kalitini berish va elektron raqamli imzolar kalitlarining sertifikatlarini ro'yxatga olish uchun,

Jismoniy shaxslardan — shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini hamda elektron raqamli imzoning kalitidan foydalanish maqsadi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Yuridik shaxslardan — soliq to'lovchi yuridik shaxsning identifikatsiya raqami to'g'risidagi ma'lumotlarni, yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi kalitining sertifikatini oluvchi xodim ko'rsatilgan ishonchnomani, ishonchnomada ko'rsatilgan xodimning shaxsini hamda elektron raqamli imzoning kalitidan foydalanish maqsadlarini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish talab qilinadi.

ERIning uchta usulda olish mumkin:

Davlat xizmatlari markazida.

Masofadan (onlayn)

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida.

Eri ro'yxatga olish markazining rasmiy veb- saytida - e-imzo.uz.

ERI ro'yxatga olish markazining rasmiy veb-saytida elektron imzo olish bo'yicha ko'rsatmalar.

ERI olishni istagan yuridik yoki jismoniy shaxslar Davlat soliq qo'mitasi ro'yxatga olish markazining rasmiy veb-saytidagi davlat xizmatidan foydalanishi mumkin.

1-qadam

e-imzo.uz saytiga kirasiz va onlayn-arizani to'ldirasiz.

Onlayn shaklda siz "yuridik shaxs" yoki "jismoniy shaxs" maqomlaridan birini tanlashingiz kerak.

Jismoniy shaxs tegishli oynada 14 xonali JShShIRni kiritadi.

Ma'lumot uchun: JShShIR - bu 14 ta raqamdan iborat va o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan yagona raqam. U pasportda ko'rsatilgan va jinsiy indeks, tug'ilgan sana, shahar kodi, fuqaroning seriya raqami, shuningdek, nazorat raqamini o'z ichiga oladi.

2-qadam

Keyin mobil' telefon raqami kiritiladi, u arizachining nomidan ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Onlayn-arizani to'ldirgandan so'ng, ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabar shaklida tasdiqlash kodi yuboriladi. Siz ushbu kodni kiritishingiz hamda ariza va telefon raqamini tasdiqlashingiz kerak.

3-qadam

Keyin boshqa bir shakl paydo bo'ladi. Bu yerda shaxsiy kalit va parol yaratiladi.

Ariza beruvchi pasport nusxasini va faylni – pasport sahifasi ochilgan fotosuratini ilova qilishi kerak.

Ma'lumot uchun: ilova qilingan fotosuratdagi arizachining tasviri aniq, ochiq fonda, to'liq yuz ko'rinishi va pasportning asosiy sahifasidagi matn tushunarli bo'lishi kerak. Suratning hajmi 5 MB dan oshmasligi kerak.

Barcha maydonlarni to'ldirgandan so'ng, "pfx faylini yaratasiz va davom eting" tugmasini bosasiz. Ushbu shaklda ko'rsatilgan ERI kalitining parolini unutmang. Shundan so'ng, tizim kiritilgan ma'lumotlar asosida elektron anketa yaratadi. So'rovnomanini diqqat bilan o'qing va agar rozi bo'lsangiz, "so'rov yuborish" tugmasini bosing.

Shu bilan onlayn arizani to'ldirish bosqichi yakunlanadi.

Ma'lumot uchun: ERI berish uchun to'lov jismoniy shaxslar uchun hisoblangan bazaviy qiymatning 7% va yuridik shaxslar uchun 10% ni tashkil qiladi. To'lovni 8 soat ichida istalgan usulda amalga oshirish mumkin: Click, PayMe yoki Paynet orqali. Shundan so'ng siz o'zingizning arizangizni veb-saytda topishingiz va chop etishingiz mumkin.

Taqdim etilgan so'rovnoma Davlat xizmatlari markazi operatori tomonidan olinganidan keyin 1 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi⁴.

Elektron raqamli imzo maxsus ximoyalangan tizimlar asosida yaratilishi va ximoyalanishiga qaramay inson omiliga bog'liq holdagi quyidagi kamchiliklari mavjud:

- elektron raqamli imzo bilan egasi nomidan boshqa shaxslar imzo qo'yishi mumkin.
- elektron raqamli imzoni ximoyalovchi maxfiy so'zning faqat kalitning o'zida saqlanishi.

Elektron raqamli imzo bilan egasi nomidan boshqa shaxslar imzo qo'yishi – ushu kamchilik bevosita elektron raqamli imzo egasining shaxsiy mas'uliyati bilan bevosita bog'liq xisoblanadi. Chunki elektron raqamli imzodan boshqa shaxslar foydalanishi uchun albatta uning kalit va aktual parolni birgalikda qo'lga kiritish zarur. Aksariyat hollarda extiyotsizlik yoki yetarli bilimga ega bo'lmaslik oqibatida shaxsiy elektron raqamli imzoni boshqa shaxslarga ishonib berib qo'yishadi, bu esa foydalanuvchiga ma'lum bo'lmagan operatsiyalarning yoki hujjatlarni uning nomidan imzolanishiga olib keladi, natijada imzoning egasiga qonuniy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Chunki imzo orqali tasdiqlashni talab qiluvchi faqatgina ushbu kalit va maxfiy so'z orqali tasdiqlashni amalga oshiradi va bunda elektron raqamli imzo faqat uning haqiqiy egasigagina ma'lum deb qaraladi va ushbu rekvizitlar to'g'riligi tasdiqlangan holda imzolash amalga oshiriladi, ushbu holda imzo egasi soxta bo'lishiga qaramay imzolangan hujjat va undagi imzo haqiqiy bo'di, shu sababdan haqiqiy egasi unga javobgar bo'ladi.

Elektron raqamli imzoni ximoyalovchi maxfiy so'zning faqat kalitning o'zida saqlanishi – ya'ni har bir elektron raqamli imzoning ximoya paroli (belgilar ketma-ketligidan iborat maxfiy so'z) joriy elektron raqamli imzoning o'zigagina tegishli bo'ladi va kalitdan nusxa olinganda nusxalarning har ikkalasi uchun aloxida parol shakllantirilishi va saqlanishi mumkin bo'ladi, bu esa o'z navbatida elektron raqamli I mzodan egasining ruxsatisiz foydalanish xavfini

⁴ <https://finlit.uz/uz/articles/remote-banking/electron-signature/>

oshiradi. Elektron raqamli imzoni ximoyalovchi maxfiy so'zning faqat kalitning o'zida saqlanishi.

Sodda qilib aytadigan bo'lsak, sizning elektron raqamli imzoingiz bor, parol sifatida 8 ta belgili maxfiy kalitdan foydalanasiz va undan faqat o'zingiz javobgar xisoblanasiz, lekin siz ma'lum sabablarga ko'ra ushbu elektron raqamli imzo orqali sizning nomingizdan imzo qo'yishi yoki foydalanish uchun tanishingizga imzo kaliti va parolini vaqtinchaga berdingiz, ishingiz hal bo'lganidan keyin esa imzo kalitining 8 ta belgili ximoya parolini 10 ta belgili ximoya paroliga o'zgartirdingiz, lekin kalitingizning nusxasini o'zida saqlab qolgan tanishingiz eski 8 talik ximoya paroli orqali hech qanday qiyinchiliksiz yana sizning nomingizdan imzo qo'yishi va istalgan operatsiyani bajarishi mumkin, chunki siz yangilagan parol faqat o'zingizdagi elektron raqamli imzo kaliti uchun aktual xisoblanadi va uning boshqa nusxalari uchun o'zgarishsiz qolaveradi.

Xulosa

Elektron raqamli imzodan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash!

Shu sababdan elektron raqamli imzodan foydalanishda juda e'tiborli va mas'uliyatli bo'lish talab etiladi. Kalitdan boshqa shaxslar foydalanish ehtimolini kamaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralarini ko'rish tavsiya etiladi:

1. Elektron raqamli imzo kalitini va parolini hechkimga bermang.
2. Elektron raqamli imzo kalitini begona kompyuterlar xotirasiga saqlamang.
3. Elektron raqamli imzo kalitini va ximoya parolini ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natmang va masofaviy serverlar xotirasida saqlamang.
4. Elektron raqamli imzo parolini umumiy foydalanish joylarida saqlamang, barcha uchun ko'rinadigan joyga, shuningdek elektron raqamli imzo kalitining nomi sifatida yozib qo'ymang.
5. Elektron raqamli imzoning paroli sifatida shaxsiy ma'lumotlaringiz (FIO, tuig'ilgan yilingiz, avtomashinangiz yoki telefoningiz raqami, manzilingiz, ish joingiz yohud lavozimingiz va kasbingiz nomi)dan foydalanmang⁵.

Elektron raqamli imzoga ega bo'lgan mansabdor shaxslar, tadbirkorlar, yuridik va jismoniy shaxslar ushbu yuqoridagi ehtiyot choralariga amal qilishi lozim.

Elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzo tizimlari zamonaviy boshqaruv va hujjat yuritish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, ularni tezkor, qulay va shaffof shaklga keltirmoqda. Ushbu tizimlar orqali hujjatlarni qabul qilish, tasdiqlash, yuborish va saqlash jarayonlari raqamlashtirilib, inson omili va byurokratik to'siqlar kamayadi. Elektron raqamli imzo esa hujjatlarning huquqiy kuchini ta'minlab, ularning muallifligini tasdiqlaydi va soxtalashtirishdan himoya qiladi. Natijada tashkilotlar o'rtasida ham, davlat va fuqaro o'rtasidagi muloqotda ham ishonchlilik darajasi oshadi.

Shu bilan birga, tizimni yanada samarali qilish uchun axborot xavfsizligini kuchaytirish, texnik nosozliklarning oldini olish, shuningdek, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish muhimdir. Umuman olganda, elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzo — davlat boshqaruvi, biznes jarayonlari hamda fuqarolik aloqalarida ochiqlik, tezkorlik va ishonchlilikni ta'minlaydigan kelajak texnologiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Yunusova M.S. Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish. –: TDYU. O'quv qo'llanma, 2023 y. 85-90 - betlar. (asosiy o'quv adabiyoti)
2. Rustambekov, I. (2020). Elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etishning huquqiy jihatlari. Yurist axborotnomasi, 2, 34-41.
3. Suyunov D.X., Kenjabayev A.T., Ro'ziyev A.O. Elektron tijorat. Darslik. -T.: 2023. –298 b

⁵ <https://sudex.uz/?p=6447>

4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-165079>
5. Electronic document management systems implementation across industries: systematic analysis https://www.researchgate.net/publication/384511242_Electronic_document_management_systems_implementation_across_industries_systematic_analysis
6. Eshonkulov J. ., & Ummatova , I. (2025). LEGAL STATUS OF ELECTRONIC SIGNATURES AND DOCUMENTS: PRACTICE IN CIVIL LAW. <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/77233>
7. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-6234904>
8. Ataniyazov Doniyor Shonazarovich "Elektron raqamli imzodan foydalanishda mavjud muammolar" <https://sudex.uz/?p=6447>
9. Azizov, A. Axborot xavfsizligi va kriptografiya asoslari. Toshkent, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rasmiy veb-sayti: www.mitc.uz

